



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024- yil yanvar - dekabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi:*  
74 228-30-37



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4 175,0 mln. AQSh dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 872,9 mln. AQSh dollariga yoki 17,3 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar - dekabr, mln. AQSh dollari)

### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **4 175,0** (-17,3 %)

(2023- y.: **5 047,9**)



**Saldo**

2024- y.: **-1 792,8** (2023- y.: **-2 718,7**)



### Eksport

2024- y.: **1 191,1** (+2,3 %)

(2023- y.: **1 164,6**)

### TSA dagi ulushi

71,5 %


28,5 %



### Import

2024- y.: **2 983,9** (-23,2 %)

(2023- y.: **3 883,3**)













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 1 191,1 mln. AQSh dollariga (2,3 % ga o‘sd) va import hajmi 2 983,9 mln. AQSh dollariga (23,2 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 792,8 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)








<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 1 165,4</p> <p>Eksport: 94,9 Import: 1 070,5</p> <p> 27,9 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 1 035,8</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 1 035,4</p> <p> 24,8 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 505,4</p> <p>Eksport: 493,2 Import: 12,2</p> <p> 12,1 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 492,1</p> <p>Eksport: 260,9 Import: 231,2</p> <p> 11,8 %</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 139,1</p> <p>Eksport: 104,2 Import: 34,9</p> <p> 3,3 %</p>
<p><b>Meksika</b></p> <p>TSA – 108,4</p> <p>Eksport: - Import: 108,4</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 107,2</p> <p>Eksport: 0,5 Import: 106,7</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>AQSH</b></p> <p>TSA – 105,6</p> <p>Eksport: 2,0 Import: 103,6</p> <p> 2,5 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 79,2</p> <p>Eksport: 79,1 Import: 0,1</p> <p> 1,9 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 57,5</p> <p>Eksport: 15,9 Import: 41,6</p> <p> 1,4 %</p>











Andijon viloyati jahonning 77 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (27,9 %), Koreya Respublikasida (24,8 %), Rossiya Federatsiyasida (12,1 %), Qozog‘istonda (11,8 %), Qirg‘iz Respublikasida (3,3 %) va Meksikada (2,6 %) qayd etilgan.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>	<b>639,4</b>	<b>1 398,4</b>	<b>1 165,4</b>
 <i>Eksport</i>	58,7	66,4	94,9
<i>Import</i>	580,7	1 332,0	1 070,5
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 552,2</b>	<b>1 418,0</b>	<b>1 035,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,9	0,4	0,4
<i>Import</i>	1 551,3	1 417,6	1 035,4
<b>Qozog'iston</b>	<b>463,9</b>	<b>545,5</b>	<b>505,4</b>
 <i>Eksport</i>	454,7	535,9	493,2
<i>Import</i>	9,2	9,6	12,2
<b>Rossiya</b>	<b>459,5</b>	<b>334,7</b>	<b>492,1</b>
 <i>Eksport</i>	181,3	228,0	260,9
<i>Import</i>	278,2	106,7	231,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>465,5</b>	<b>217,8</b>	<b>139,1</b>
 <i>Eksport</i>	429,5	177,0	104,2
<i>Import</i>	36,0	40,8	34,9
<b>Meksika</b>	<b>86,4</b>	<b>214,7</b>	<b>108,4</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	-
<i>Import</i>	86,4	214,7	108,4
<b>Braziliya</b>	<b>68,3</b>	<b>222,3</b>	<b>107,2</b>
 <i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,5
<i>Import</i>	67,8	222,0	106,7
<b>AQSH</b>	<b>82,8</b>	<b>167,6</b>	<b>105,6</b>
 <i>Eksport</i>	0,3	3,8	2,0
<i>Import</i>	82,5	163,8	103,6
<b>Afg'oniston</b>	<b>10,6</b>	<b>22,3</b>	<b>79,2</b>
 <i>Eksport</i>	10,6	22,3	79,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,1
<b>Turkiya</b>	<b>110,2</b>	<b>103,0</b>	<b>57,5</b>
 <i>Eksport</i>	40,5	24,5	15,9
<i>Import</i>	69,7	78,5	41,6

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>9,3</b>	<b>39,3</b>	<b>45,7</b>
	<i>Eksport</i>	3,4	33,4	43,4
	<i>Import</i>	5,9	6,0	2,3
	<b>Slovakiya</b>	<b>12,6</b>	<b>30,6</b>	<b>45,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	-
	<i>Import</i>	12,6	30,6	45,5
	<b>Ozarkbayjon</b>	<b>23,5</b>	<b>26,3</b>	<b>42,8</b>
	<i>Eksport</i>	23,0	26,2	42,7
	<i>Import</i>	0,4	0,1	0,1
	<b>Hindiston</b>	<b>37,8</b>	<b>56,5</b>	<b>36,1</b>
	<i>Eksport</i>	1,0	0,3	1,6
	<i>Import</i>	36,8	56,2	34,5
	<b>Pokiston</b>	<b>2,2</b>	<b>3,4</b>	<b>29,5</b>
	<i>Eksport</i>	2,1	1,6	22,9
	<i>Import</i>	0,0	1,8	6,6
	<b>Polsha</b>	<b>11,7</b>	<b>16,1</b>	<b>20,1</b>
	<i>Eksport</i>	1,3	0,6	2,4
	<i>Import</i>	10,4	15,4	17,7
	<b>Chexiya</b>	<b>24,4</b>	<b>15,8</b>	<b>18,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	-
	<i>Import</i>	24,2	15,8	18,8
	<b>Tayland</b>	<b>9,4</b>	<b>12,0</b>	<b>17,5</b>
	<i>Eksport</i>	-	0,0	-
	<i>Import</i>	9,4	12,0	17,5
	<b>Germaniya</b>	<b>37,9</b>	<b>42,6</b>	<b>16,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,3	0,6
	<i>Import</i>	37,2	42,3	15,8
	<b>Vietnam</b>	<b>1,0</b>	<b>17,3</b>	<b>15,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
	<i>Import</i>	1,0	17,3	15,8




## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 60,3 % ulush bilan 2 518,6 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,6 % ulush bilan 24,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 29,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga oshdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 70,1 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 1 247,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 962,7 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 284,5 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

**Qozog'iston – 40,5**



**Rossiya – 39,5**



**Qirg'iz  
Respublikasi – 11,2**



**Belarus – 3,6**



**Ozarbajjon – 3,4**



**Tojikiston – 0,6**



**Turkmaniston – 0,5**



**Ukraina – 0,5**



**Moldova – 0,1**



**Armaniston – 0,1**




Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Qozog'iston (40,5 %), Rossiya Federatsiyasi (39,5 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (11,2 %) bilan qayd etildi.



## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 1 182,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 901,8 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 280,7 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'rishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 468 taga yetdi va ular tomonidan 1 191,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr)



6,3 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,3 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,3 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



5,6 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,03 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



1,1 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



21,4 %

7. Sanoat tovarlari



40,1

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



23,2

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,6 %

10. Xizmatlar



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>1 164,6</b>	<b>1 191,1</b>	<b>93,4</b>	<b>102,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,0	74,8	94,9	197,0	3,3	6,3
Ichimliklar va tamaki	5,7	3,5	2,7 m.	62,1	0,5	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,8	3,4	63,4	90,9	0,3	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	67,3	12,5	50,4 m.	0,1	5,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0002	0,37	30,7	1967,1 m.	0,00002	0,03
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	21,0	12,6	79,9	60,2	1,8	1,1
Sanoat tovarlari	239,7	255,4	84,1	106,6	20,6	21,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	535,0	477,7	113,0	89,3	45,9	40,1
Turli xil tayyor buyumlar	300,0	276,6	77,0	92,2	25,8	23,2
Xizmatlar	20,2	19,3	150,7	95,4	1,7	1,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,4 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (40,1 %), turli xil tayyor buyumlar (23,2 %), sanoat tovarlari (21,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (6,3 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (5,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	65 687,4	184,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	4 134,6	13,3 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 840,0	401,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	800,0	94,6
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	3 543,7	62,1
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	1 832,4	72,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	670,0	117,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	635,2	149,5
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	128,4	104,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	67 270,2	50,4 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	371,8	1967,1 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 440,5	50,0
Noorganik kimyo moddalari	1 387,2	180,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	550,2	2,4 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	545,6	198,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	390,0	65,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	265,2	117,8


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisba-tan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	233 207,1	105,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar,	8 591,6	171,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 142,7	136,6
Cho'yan va po'lat	3 905,5	33,9 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 744,6	2,5 m.
Rangli metallar	1 146,6	73,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	339,0	6,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	261,1	22,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	69,3	7,8 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	295 979,1	85,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	158 350,4	98,9
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	9 914,6	89,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	9 187,6	65,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	935,1	20,0 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	375,9	80,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	257 555,6	92,5
Poyabzal	9 517,1	69,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	5 429,8	184,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 007,3	105,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	658,6	2,1 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	444,0	27,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari,	23,5	102,7
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	5,4	102,7

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 962,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 80,8 % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari

■ Boshqa davlatlar

2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XXR, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)






## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Qozog'iston	535,9	493,1	117,8	92,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	228,0	260,8	125,7	114,4	2	2
Qirg'iziston	177,0	104,2	41,2	58,9	3	3
Xitoy	66,4	94,9	113,0	143,0	4	4
Afg'oniston	22,3	79,1	2,1 m.	3,6 m.	8	5
Belarus	33,4	43,3	9,8 m.	129,9	5	6
Ozarbayjon	26,2	42,7	113,6	163,2	6	7
Pokiston	1,6	22,9	73,8	14,5 m.	15	8
Turkiya	24,6	15,9	60,7	64,8	7	9
Tojikiston	20,1	6,1	139,8	30,5	9	10
Ukraina	4,7	5,2	95,6	110,7	11	11
Turkmaniston	3,5	4,9	9,2 m.	141,6	13	12
Polsha	0,6	2,4	50,2	3,7 m.	17	13
AQSh	3,8	2,0	13,6 m.	52,7	12	14
BAA	5,9	1,9	19,2 m.	32,7	10	15
Moldova Respublikasi	2,3	1,9	53,0	80,1	14	16
Hindiston	0,3	1,6	27,9	5,7 m.	19	17
Mongoliya	0,07	0,7	-	10,0 m.	20	18
Latviya	1,0	0,6	33,2	65,5	16	19
Germaniya	0,3	0,6	46,1	173,8	18	20



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 43,9 % bilan 522,9 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,4 % bilan 4,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo‘yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida 125,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,1 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (40,1 %), Rossiya Federatsiyasi (23,3 %), Pokiston (17,6 %), Afg'oniston (8,0 %) hamda Polsha (2,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 70,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 86,4 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.







### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>8,3 mln AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p>2,8 m. ↑</p> 	<p><b>Karam</b></p> <p>2,0 mln AQSH dollari</p> <p>10,0 ming tonna</p> <p>13,2 % ↑</p> 	<p><b>Bodring</b></p> <p>2,2 mln AQSH dollari</p> <p>3,0 ming tonna</p> <p>40,2 % ↑</p> 	<p><b>Pomidor</b></p> <p>3,5 mln AQSH dollari</p> <p>3,8 ming tonna</p> <p>62,3 % ↑</p> 
<p><b>Sabzi</b></p> <p>5,8 mln AQSH dollari</p> <p>35,5 ming tonna</p> <p>28,4 % ↑</p> 	<p><b>Piyoz</b></p> <p>2,8 mln AQSH dollari</p> <p>7,9 ming tonna</p> <p>26,9 % ↑</p> 	<p><b>Yeryong'oc</b></p> <p>0,6 mln AQSH dollari</p> <p>0,8 ming tonna</p> <p>49,5 % ↑</p> 	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>5,6 mln AQSH dollari</p> <p>25,2 ming tonna</p> <p>- 12,2 % ↓</p> 



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	96,8	28 147,2	40,1
 Rossiya Federatsiyasi	17,8	16 306,7	23,3
 Pokiston	2,8	12 342,1	17,6
 Afg'oniston	1,0	5 610,4	8,0
 XXR	3,6	2 695,6	3,8
 Polsha	0,8	1 728,1	2,5
 Turkiya	0,6	1 636,0	2,3
 Latviya	1,1	390,9	0,6
 BAA	0,1	332,0	0,5
 Qozog'iston	0,2	275,7	0,4
 Belarus	0,2	184,2	0,3
 AQSh	0,02	57,8	0,1
 Mongoliya	0,1	36,9	0,1
 Ukraina	0,1	28,4	0,04
 Saudiya Arabistoni	0,05	12,5	0,02

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 40,1 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yakuni bo'yicha 492,1 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 41,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,2 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (55,0 %), ip kalava (31,2), trikotaj mato (12,6 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)




Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



 Xizmatlar eksporti hajmi 19,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (27,7 %), safarlar (turizm) (16,0 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (12,8 %) va transport xizmatlar (4,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 983,9 mln. AQSh dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 23,2 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (57,2 %), sanoat tovarlari (20,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023-yil yanvar-dekabr)



1,2%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,02%

2. Ichimliklar va tamaki



0,9%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



6,2%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,1%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



6,9%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



20,2%

7. Sanoat tovarlari



57,2%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



4,1%

9. Turli xil tayyor buyumlar



3,3%

11. Xizmatlar



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 899,5 mln. AQSh dollariga kamaydi va 2 983,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 98,0 mln. AQSh dollariga yetdi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>3 883,3</b>	<b>2 983,9</b>	<b>127,9</b>	<b>76,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23,4	34,5	133,9	147,5	0,6	1,2
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,5	2,5 m.	162,1	0,0	0,02
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	24,1	26,2	107,8	108,7	0,6	0,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	46,5	186,0	2,7 m.	4,0 m.	1,2	6,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	3,2	1,4	20,3 m.	44,6	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	300,7	205,5	136,8	68,3	7,7	6,9
Sanoat tovarlari	726,6	602,7	109,7	83,0	18,7	20,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2 519,3	1 706,1	140,9	67,7	64,9	57,2
Turli xil tayyor buyumlar	147,0	122,9	131,6	83,6	3,8	4,1
Xizmatlar	92,4	98,0	47,2	106,1	2,4	3,3



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	12 004,2	2,0 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	10 077,1	186,9
Sabzavotlar va mevalar	2 851,9	75,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	3 088,6	3,3 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 263,2	116,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1 591,3	65,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 539,4	61,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 089,2	2,8 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	525,1	162,1
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	6 948,8	87,8
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	4 603,4	20,7 m.
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	5 093,5	98,2
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	4 813,1	61,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	3 253,3	178,5
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	1 084,3	158,3
Metall rudalari va metall parchalari	67,7	54,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	157 578,2	6,3 m.
Ko'mir, koks va briketlar	19 223,1	100,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	9 184,4	4,2 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	1 416,6	47,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	3,3	1,5
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	57 374,1	59,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	56 571,6	88,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	32 010,3	60,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	23 774,4	73,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	11 417,8	54,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	10 706,4	80,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	254 520,2	97,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	128 903,9	78,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	142 346,9	80,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	46 889,4	66,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14 616,7	44,4
Rangli metallar	10 883,6	72,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi	2 134,9	119,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 501,6	41,5
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	952,5	150,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1 010 368,7	63,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	201 915,8	107,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	151 189,8	65,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	155 179,6	120,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	82 211,4	33,6
Metallarni qayta ishlash mashinalari	46 442,9	2,4 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	42 347,3	109,7
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	14 361,8	22,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	44 944,5	97,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	41 322,3	61,1
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	22 274,6	104,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	10 722,1	133,9
Poyabzal	1 299,2	76,2
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 197,6	171,7
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	904,0	65,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	224,0	109,6



2024- yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlardan import ulushi 9,5 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga oshdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyati 67 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Slovakiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)






## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy	1 332,0	1 070,5	2,3 m.	80,4	2	1
Koreya Respublikasi	1 417,6	1 035,4	91,4	73,0	1	2
Rossiya Federatsiyasi	106,7	231,2	38,3	2,2 m.	6	3
Meksika	214,7	108,4	2,5 m.	50,5	4	4
Braziliya	222,0	106,7	3,3 m.	48,0	3	5
AQSh	163,8	103,6	198,5	63,2	5	6
Slovakiya	30,6	45,5	2,4 m.	148,8	11	7
Turkiya	78,5	41,6	112,6	53,0	7	8
Qirg'iziston	40,8	34,9	113,1	85,5	10	9
Hindiston	56,2	34,5	152,6	61,4	8	10
Chexiya	15,8	18,8	65,0	119,3	13	11
Polsha	15,4	17,7	147,7	114,6	14	12
Tailand	12,0	17,5	128,0	145,3	16	13
Germaniya	42,3	15,8	113,8	37,3	9	14
Vetnam	17,3	15,7	17,6 m.	91,1	12	15
Qozog'iston	9,6	12,2	104,6	127,6	18	16
Eron Islom Respublikasi	11,3	9,0	118,8	79,3	17	17
Pokiston	1,8	6,6	61,8 m.	3,7 m.	20	18
Italiya	13,0	5,6	148,7	43,4	15	19
Portugaliya	4,1	5,2	2,0 m.	129,0	19	20



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



2024- y.


2023- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 66,9 % bilan 1 995,7 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,1 % bilan 3,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 98,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 6,1 % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (94,1 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (2,9 %) ga tegishli bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 602,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,0 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 20,2 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

356,2 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 59,1 %*



**XXR**

122,3 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 20,3 %*



**Koreya  
Respublikasi**

30,8 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 5,1 %*



**Slovakiya**

20,8 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 3,4 %*



**Braziliya**

12,9 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 2,1 %*



**Meksika**

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (254,5 mln. AQSh dollari), rezina buyunlari (142,3 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (128,9 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (46,9 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.